Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 81 217,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 122,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,0 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o'sish sur'ati
YAHM hajmi
YAHM deflyator indeksi
YAIMga qo'shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2023- yil*** | ***2024- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **61 640,4** | **81 217,6** | **107,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 60 781,4 | 80 292,1 | 107,4 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 859,0 | 925,5 | 105,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **60 781,4** | **80 292,1** | **107,4** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **7 873,4** | **8 633,4** | **103,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **44 395,7** | **61 271,3** | **108,4** |
| sanoat | 41 439,1 | 57 642,2 | 107,8 |
| qurilish | 2 956,6 | 3 629,1 | 116,3 |
| **xizmatlar** | **8 512,3** | **10 387,4** | **106,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2 823,2 | 3 412,0 | 109,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 978,7 | 1 257,8 | 115,9 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4 710,4 | 5 717,6 | 102,8 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 75 020,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga yuqoridir.

**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*

57 987,2 — 2023- yil

75 020,9 — 2024- yil

**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

2023- yil — 104,2 %

2024 yil — 105,5 %

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2023- yil* | *2024- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,6 | 98,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1,4 | 1,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **13,0** | **10,8** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **73,1** | **76,3** |
| sanoat | 68,2 | 71,8 |
| qurilish | 4,9 | 4,5 |
| **xizmatlar** | **13,9** | **12,9** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 4,6 | 4,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1,6 | 1,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 7,7 | 7,1 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHM ning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 10,8 % ni, sanoat tarmog‘i 71,8 % ni, qurilish 4,5 % ni va xizmatlar sohasi 12,9 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2023- yil**




**2024- yil**




Yalpi qo‘shilgan qiymat — Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog‘i – 5,2 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 4,4 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 0,9 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,0 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko‘paydi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,0 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 10,8 %), sanoatda – 107,8 % (71,8 %), qurilishda – 116,3 % (4,5 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % ni (12,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,5 % (4,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,9 % (1,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % dan (7,1 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 6,3 % | YAHM | 7,4 % |
| 3,7 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,0 % |
| 6,5 % | Sanoat | 7,8 % |
| 7,2 % | Qurilish | 16,3 % |
| 7,2 % | Xizmatlar | 6,6 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 122,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 129,0 % va xizmatlar sohasida – 114,5 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,7 % | 122,7 % |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 118,1 % | 106,4 % |
| Sanoat | 109,8 % | 129,0 % |
| Qurilish | 110,5 % | 105,6 % |
| Xizmatlar | 112,9 % | 114,5 % |

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 20 184,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 17 190,9 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 25,1 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 28,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2023- yil | 17 190,9 | 28,3 % |
| 2024- yil | 20 184,8 | 25,1 % |

